

ПЕДАГОГИК ВА
ПСИХОЛОГИК
ТАДҚИҚОТЛАР

МАРТ, 2023

3-СОН



**PEDAGOGICAL AND
PSYCHOLOGICAL STUDIES**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-3>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Педагогика фанлари

UMAROVA Nilufar Xasanovna

Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7783943>

KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARI KASBIY KOMPETENSIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlik umumta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligi, ta'lim islohotlari jarayonida uni rivojlantirish bilan bog'liq muhim vazifalar to'g'risida mushohada yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshqaruv, maktab rahbari, zamonaviy rahbar, kompetensiya, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichlari.

ANNOTATION

This article notes that communicative competence is one of the important components of the professional competence of the heads of educational institutions, and important tasks are associated with its development in the process of reforming education.

Key words: education, management, head of school, modern leader, competence, competence, communicative competence, communicative competence, professional competence, professional competence, indicators of communicative competence.

АННОТАЦИЯ

В данной статье отмечается, что коммуникативная компетентность является одной из важных составляющих профессиональной компетентности руководителей общеобразовательных учреждений, и важные задачи связаны с ее развитием в процессе реформирования образования.

Ключевые слова: образование, менеджмент, руководитель школы, современный лидер, компетентность, компетенция, коммуникативная компетентность, коммуникативная компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная компетентность, показатели коммуникативной компетентности.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham bir qator o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-ma'naviy, huquqiy-siyosiy, ma'rifiy-dunyoiviy jihatdan mustahkamlash va takomillashtirish "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili asosida kelajakda buyuk davlatga aylantirishning muhim omili bo'lib, uning hozirgi bosqichdagi maqsad va vazifalari Respublikamizning yangi tahrirda 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida har tomonlama teran belgilab berilgan.

O‘zbekiston uchinchi ming yillikda jamiyat hayotining turli sohalari jumladan, ta’lim tizimi sohasini tubdan isloh qilish jarayoniga qadam qo‘ydi. Ta’lim har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, ma’naviyati va madaniyati darajasining ko‘rsatkichi shuningdek, taraqqiyotining asosidir.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz, - deb ta’kidladilar [1].

Ta’lim sohasidagi doimiy o‘zgarishlar yangi kompetensiyalar paydo bo‘lishiga olib keladi, bu esa rahbarga o‘zgaruvchan muhitda ota-onalar va maktab o‘quvchilarining ta’lim ehtiyojlarini tahlil qilish, maktabdagi o‘zgarishlar amalga oshirilishini baholash, muassasa faoliyati samaradorligi mezonlaridan kelib chiqib, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga imkon beradi. O‘z rivojlanishini boshqarish (o‘zini-o‘zi rivojlantirish) kompetensiyalari ham yangilanmoqda. Ta’lim va menejment sohasida ilm-fan va texnologiyaning mahalliy va xorijiy yutuqlarini o‘rganish va amalga oshirishga, yetakchilik fazilatlarini takomillashtirishga, odamlarga ta’sir o‘tkazish usullari va o‘ziga xos usullarni, nizolarni boshqarish va vaqtni boshqarish asoslarini o‘zlashtirishga tayyorgarlik har bir zamonaviy rahbarning faoliyatida zaruriy kompetensiyalarga aylanib bormoqda.

Xo‘sh, kompetensiya nima? Kompetensiya so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma’noni bildiradi. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa “musobaqalashishga layoqatlilik” ma’nosini bildiradi. Atamaning mohiyati shuningdek, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xossa”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda [2].

Kompetensiya atamasi turli ilmiy manbalarda turlicha izohlanadi. Birinchi marta kompetensiya atamasi amerikalik tilshunos Massachusets universiteti professori Noem Xomskiy tomonidan 1965-yilda ilmiy foydalanishga kiritilgan. U insonning har qanday faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini tasniflash uchun “kompetensiya” tushunchasidan foydalanishni taklif qildi. Pedagogikada “kompetensiya” tushunchasi 1989-1993-yillarda kiritilgan va “ta’lim jarayonining yakuniy natijasi”, “kompetensiya” yoki “amaldagi kompetensiya” deb talqin qilingan [3].

Kompetentlik – bu faqatgina o‘zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi hamda salmoqli hajmi bo‘libgina qolmay, balki, ularni kerak vaqtda qo‘llay olish va o‘zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir.

Namunalarga o‘xshash harakatlarni ko‘zda tutadigan “bilim, ko‘nikma va malakalar”dan farqli o‘laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Kompetentlik - ijtimoiy amaliyot ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi bo‘lib, u ta’lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir [4].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab rahbarlarining 83% zamonaviy maktabni boshqarish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikmalarni yaxshi bilmaydi va strategik qarorlar qabul qilish va ta’lim muassasasi faoliyatini loyihalashtirishda, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday muammolarni bartaraf etishda kompetensiya, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, ishbilarmonlik, ijodkorlik, o‘quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik bilan muloqot qilish qobiliyati birinchi o‘ringa chiqadi [5].

Kompetentlikning mavjudligi to‘g‘risida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir rahbarning kompetentlik darajasi uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Demak, kompetentlik to‘g‘risida rahbarning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarning miqdoriga qarab emas, balki faoliyatning natijasiga qarab baho berish to‘g‘ri bo‘ladi. Xuddi shuningdek, savodxonlik darajasiga qarab ham kompetentlikni belgilab bo‘lmaydi.

M.A.Choshanov fikricha, kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlari quyidagilar:

- kompetentli rahbarning bilimlari amaliy tezkor va harakatchan, ular doimo yangilanib turadi;

- kompetentlik mazmuni (bilimlar) va jarayonlarga doir (ko‘nikmalar) komponentlarga ega. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, ya’ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy xarakteristikasi hisoblanadi;

- kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlash, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi [6].

Ta’lim vazifalarini amalga oshirishda, belgilangan maqsadlarga erishish uchun kompetensiyalar muhim ahamiyatga ega. Bunday kompetensiyalardan biri kommunikativ kompetensiyadir. Kommunikativ kompetensiya – rahbardan to‘laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda jamoa a’zolari, o‘quvchi va ota-onalar bilan ijobiy munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbarlarining kommunikativ kompetentligini yanada rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadli tadqiqotlardan hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya insonlar bilan bevosita muloqot qilish bilan bog‘liq bo‘lgan kasb vakillariga yoki boshqacha aytganda “inson-inson” tizimiga tegishli. Kommunikativ kompetensiya bir tomondan inson qobiliyatlari bilan belgilansa, boshqa tomondan esa, u olingan bilimlar, ko‘nikmalar va hatto qadriyatlar yo‘nalishlari bilan bog‘liq. Ilmiy manbalarning tahlili bizni har qanday rahbar egallashi lozim bo‘lgan asosiy, “kalit” kompetensiyalardan biri kommunikativ kompetentlik ekanligiga ishontiradi, zero o‘z kasbiy faoliyatida rahbar, muloqotning faol subyekti sifatida: turli xil odamlar bilan muloqot qila olishi, ularni o‘z fikr, g‘oyalarining to‘g‘ri, adolatli ekanligiga ishontira olishi, o‘z professional nuqtai nazarini, qarashlarini himoya qila olishi, kommunikativ malakalarni egallagan bo‘lishi, nizo va ziddiyatlarni yechib, hal qila olishi, o‘z holati va ahvolini tartibga sola olishi shart.

Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayoni mexanizmlarini biz muloqot jarayonini uchta: kommunikativ, interfaol va perseptiv kabi o‘zaro aloqador komponentlarning birligi sifatida G.M. Andreyeva, A.A. Bodalev, A.A. Leontyev, B.F. Lomov, D.A. Petrovskaya va boshqa olimlarning asarlari asosida, B.G. Ananyev, A.A. Bodalev, A.A. Brudniy, A.A. Leontyev, V.N. Myasishev, A.V. Mudrik va boshqalar ta’lim samaradorligini oshiradigan shart sifatida o‘rgangan olimlar asarlari asosida o‘rgandik. Pedagogik psixologiya sohasidagi tadqiqotlarning tahlili kommunikativ kompetentlik shaxslar bilan zarur aloqalarni o‘rnatish va saqlab qola olish (qo‘llab-quvvatlash) qobiliyati sifatida Yu.N. Yemelyanov, Yu.M. Jukov, Ye.S. Kuzmin, L.A. Petrovskaya, P.V. Rastyannikov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Bizning fikrimizcha, kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lish kommunikatsiya parametrlarini bilish, ularni o‘rnatish, aloqa jarayonini shakllantirish va uni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lish demakdir. Muloqotning bu xususiyati gapirish, suhbat, bahs-munozaralar, intervyu, muzokaralarda foydalanish, ijtimoiy-madaniy xulq normalarini hisobga olgan holda nutqli muloqotni tashkil etish, mulohazalarning kommunikativ maqsadga muvofiqligi kabilar maktab direktorining muhim kasbiy sifatlaridan hisoblanadi.

Maktab rahbarining kasbiy maqomining rivojlanishi “maktab direktorining kasbiy kompetensiyasi” tushunchasining o‘zgaruvchanligi va tarixiy sharoitlardan kelib chiqib nisbiy ekanligini belgilaydi.

Umumta’lim maktablari rahbarlarining ko‘pchiligining kasbiy tayyorgarligi zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga mos kelmaydi. “Hayotiy tajribaga” asoslangan an’anaviy maktab boshqaruvi ko‘pchilik rahbarlarning stereotiplardan uzoqlashishiga imkon bermaydi. Shuning uchun maktab rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi ustuvor vazifaga aylanadi [7].

Turli tadqiqotchilar tomonidan rahbarda bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy kompetensiyalar turlicha belgilanadi. Masalan, L.I.Lusenko rahbarlarda nazariy-metodologik, innovatsion-tadqiqotchilik, kommunikativ-konfliktologik kompetentlik kabi 3 ta asosiy kompetensiyalarni shakllangan bo‘lishi zaruratini ilgari suradi [8].

E.G.Murugova rahbar xodimlarda nazariy, tashkiliy, ijtimoiy, boshqaruv (maxsus) kompetensiyalarni rivojlantirish muhim deb hisoblaydi [9].

Rahbarning xususan, maktab direktorining kasbiy kompetentligi ham turlicha talqin qilinishiga amin bo‘ldik. “Kasbiy kompetensiya” tushunchasining zamonaviy talqinlarini tahlil qilish “maktab direktorining kasbiy kompetensiyasini” bilim va ko‘nikmalarga qo‘shimcha ravishda shaxsiy xususiyatlarni integral, kasbiy va shaxsiy xususiyat sifatida aniqlashga imkon berdi. Kasbiy kompetentlik kasbiy faoliyatni amalga oshirish, kasbga oid muhim fazilatlar va orttirilgan faoliyat tajribasi, maktab rahbariga o‘zgaruvchan kasbiy maqomiga muvofiq boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasining zamonaviy talqinlari tahlili “maktab direktorining kasbiy kompetentligini” rahbarga boshqaruv funksiyalarini uning o‘zgarayotgan kasbiy maqomiga mos tarzda amalga oshirish imkonini beradigan bilim va ko‘nikmalardan tashqari shaxsiy xususiyatlar va faoliyat bo‘yicha orttirilgan tajribalarni qamrab olgan umumlashgan kasbiy va shaxsiy xususiyat sifatida aniqlash imkonini beradi.

Demak, umumiy o‘rta ta‘lim maktabi rahbarining kasbiy kompetensiyasi – bu rahbarning maktabni boshqarish amaliyotida kasbiy (boshqaruv) bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llashga tayyorligi va qobiliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2017-yil 26-dekabrda 393-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan hamda 2018-yil 11-maydagi O‘zstandart agentligidan 6447-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Xalq ta‘limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta‘limining mazmuni hamda sifatiga qo‘yiladigan davlat talablari”da rahbar xodimlarning xususan maktab direktorlarining quyidagi 6 ta umumiy va 2 ta xususiy kompetensiyalari belgilangan.

Umumiy kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. AKT va media savodxonlik kompetensiyasi;
3. O‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘z ustida ishlash kompetensiyasi;
4. Mas’uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyasi;
5. Inklyuziv ta‘limni joriy etish kompetensiyasi;
6. Huquqiy kompetensiya.

Xususiy kompetensiyalar:

1. Boshqaruv kompetensiyasi;
2. Moliyaviy- iqtisodiy kompetensiya.

Maktab direktorining faoliyati jarayonida mazkur kompetensiyalarning rivojlanishi bevosita uning kommunikativ kompetentligini taqazo etadi.

Kommunikativ kompetentlik ko‘rsatkichlari:

- o‘zgalar fikrini hurmat qilishini namoyon qila olish;
- o‘zgalar fikriga ta‘sir etuvchi (ishontira olish, to‘g‘rilash, fikrni qarama-qarshi qo‘yish)

muloqot maneralarini tanlay olish;

- o‘zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o‘zaro munosabatlarini o‘rnatishga qaratilgan (qo‘llab-quvvatlash, konsruktiv, ruxlantiruvchi) muloqot shakllarini tanlay olish;

- ta‘lim jarayoni sifatini oshirish va ta‘lim oluvchilarning o‘quv ehtiyojini qondirish maqsadida o‘z hamkasblari bilan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalari yordamida aloqa o‘rnata olish va hamkorlik qilish;

- ta‘lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish;

- o‘zgalar bilan o‘zaro hurmat asosida qurilgan munosabatlarni o‘rnata olishi;

- o'zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda ahloq normalariga rioya etish;

- milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas'uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qila olish [10].

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim tizimi boshqaruvida kompetentli yondashuvni amalga oshirish maktab rahbarlarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlanishiga, ya'ni ularda kasbiy va shaxslararo muloqotda konstruktiv o'zaro ta'sirlashuv va samarali qarorlar qabul qilish va foydalanish, shuningdek, o'quv va kasbiy vaziyatda o'zaro muloqot qilish imkonini beruvchi verbal va kinetik muloqot, hamkorlik qilishga oid ko'nikmalar majmuasi mavjudligiga bog'liq ekan.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki;

- *birinchidan*, kommunikativ kompetentlik zamonaviy rahbarga zarur bo'lgan asosiy kompetentlikdan biri va rahbar kasbiy kompetentligining asosiy "yo'lchi yulduzi" sifatida qayd qilamiz;

- *ikkinchidan*, kommunikativ kompetentlik tomonlarning – lisoniy xulq atvorning o'zi va kommunikativ xulq atvor bilan birgalikda o'rganishni taqozo etadi;

- *uchinchidan*, bizning fikrimizcha, kommunikativ kompetentlikni rahbarning xususiy kasbiy kompetentligi strukturasiida mustaqil bir blok sifatida kiritish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqori kommunikativ kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki rahbarning amaliy ko'nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlarini hamdir.

IQTIBOSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi.

2. Ананьев, Б.Г. Человек как предмет познания / Б.Г. Ананьев. –Л.: Наука, 198. -180с.

3. Хрестоматия по эффективности управления образованием: мотивационный программно-целевой подход/ Под. Ред. И.К.Шалаева – Барнаул, БГПУ, 2003. -820с .

4. Зверева Н.М. Преподавателью вуза: практическая педагогика: учебное пособие – Н.Новгород: НГПУ им.К.Минина, 2012.-162с.

5. Никитин. Э. М. Теоретические и организационно-педагогические основы развития федеральной системы дополнительного педагогического образования. М. 1999. 314с.

6. Чошанов М.А. Теория и технология проблемно-модульного обучения в профессиональной школе Текст.: диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Казань, 1996. -368с.

7. Насонкин В.В. Основные проблемы государственной образовательной политики в условиях глобализации: Монография. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И.Герцена, 2013. -123с.

8. Л.И.Луценко. Повышение квалификации директора школы на основе учета развития его профессионального статуса. / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – 13.00.01. –Тула.-2005.

9. Е.Г.Муругова. Подготовка управленческих кадров образования в системе повышения квалификации к командному менеджменту. / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – 13.00.08. –Томск.-2013.

10. Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’limining mazmuni hamda sifatiga qo‘yiladigan davlat talablari /2018-yil 16-mayda O‘zStandart agentligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan. –Т.:2018.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 3-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-3

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz